

**MISRDA ILK PODSHOLIK DAVRINI O'RGANISH**SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**SHDPI 1-KURS TALABASI **Normamatov Suxrob**SHDPI 1-KURS TALABASI **Nomozo'v Elbek**

**Annotatsiya:** Maqola Qadimgi dunyo tarixidagi Misrda ilk podsholik davri haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Xorus, Menes, nom, nomarx, yozuv san'ati, mastaba, Nexbet .

Misrning ilk podsholik davri (miloddan avvalgi 3100–2686-yillar) qadimgi dunyo tsivilizatsiyalari tarixidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr Yuqori va Quyi Misrning birlashtirilishi bilan boshlanib, birinchi markazlashgan davlatning tashkil topishi bilan yakunlanadi. Ushbu jarayon qadimgi Misrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan kuchayishiga zamin yaratgan. Ilk podsholik davri qadimgi Misrning birinchi va ikkinchi sulolalari hukmronligi davrini o'z ichiga oladi. Davrning boshida afsonaviy fir'avn Narmer (Menes) o'zining g'alabalari orqali Misrni yagona davlat sifatida birlashtirgan. U ikki hududning ramzi bo'lgan oq va qizil tojlarni birlashtirgan holda, yangi siyosiy tartibni joriy etgan. Bu birlashuv Misr jamiyatining barcha sohalarida keskin o'zgarishlarni boshlab bergan. Ushbu davrda davlat boshqaruvi tizimi shakllana boshladi, irrigatsiya tizimlari rivojlanib, qishloq xo'jaligi samaradorligi oshdi. Shuningdek, ilk yozuv tizimi – ierogliflar paydo bo'lib, madaniyat va diniy e'tiqodlarning rivojlanishiga katta turtki berdi. Ilk podsholik davri Misrning buyuk tsivilizatsiya sifatida shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratgan.

Bu davrning o'rganilishi Misr tarixining dastlabki bosqichlarini, uning siyosiy va madaniy rivojlanishini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.(1)

Ilk podsholik davrida yagona va ko'p sonli davlat apparati va bu apparatni boqadigan davlat yer egaligi shakllangan. Davlat yerlarida tashkil etilgan yirik xo'jaliklarda davlatga qaram bo'lgan ishchilar mehnat qilganlar. Davlatga turli soliq va majburiyatlar o'tashga majbur bo'lgan qishloq jamoasi ham mavjud edi. Ilk podsholik davri sug'orish tarmoqlarining rivojlanishi, tosh va mis qurollarining mukammallashuvi, kulolchilik charxining paydo bo'lishi, ayirboshlash savdosining taraqqiy etishi bilan harakterlidir. Bu davrda misrliklar hayotida urug'chilikning ham ta'siri kuchli bo'lgan va ular asosan tosh, mis mehnat qurollaridan ko'proq foydalanishgan, bronza esa kam bo'lgan. Ilk podsholik davrida omoch paydo bo'lgan. Yerlarning o'zlashtirilishi va sug'orish inshootlarining qurilishi kuchaytirilishi tufayli dehqonchilik rivoj topgan. Misrliklarning asosiy suv manbasi Nil daryosi bo'lib, ziroatchilikning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Ekinzorlar Nil daryosi va Fayum suv omboridan suv oladigan kanallar orqali sug'orilgan. Ularda bog'dorchilik rivoj topib, shimolda uzumchilikka, janubda esa xurmochilikka katta e'tibor berilgan.

Nomliklar orasidagi separatizmni firavnning siyosiy mavqei muvozanatda ushlab turgan. Ilk podsholik davrida davlat apparati va unga xizmat qiluvchi amaldorlar- kotiblar tabaqasi shakllangan. Ma'muriy okruglar «nomlar» tashkil topib, ularni «nomarxlar boshqargan. Muntazam ravishda bosqinchilik yurishlari uyushtirilib turganlar, jumladan: Kush (Nubiya)ga, shimoli- g'arbga liviyaliklarga va Sinay yarim orolidagi badaviylarga qarshi yurishlar qilingan. Sababi bu yerda mis konlari mavjud edi.

Ilk podsholik davrida qadimgi Misr san'ati tamoyillari, turlari shakllangan. Mamalakat Menes davrida yagona davlatga aylantirilgan vaqtdayoq misrliklar metallardan foydalanish yo'llarini bilib olganlar. Avvaliga misdan keyin esa bronzadan har xil asboblar, qurol-yarog'lar ishlangan. Bu davrda toshni ishlash va duradorchilik san'ati muhim o'rin tutgan. Chunki bu hunarni misrliklar mukammal

darajada bilganlar. Masalan, shohlar qabrlaridan topilgan toshdan ishlangan ajoyib ko'zalar va guldona eramizdan avvalgi 2800- yillarga, ya'ni I-sulola davriga to'g'ri keladi. Yozuv san'ati Misrda Menes davrida, balki undan ham ilgari yaratilgan. Misrda yozuv majburiy ravishda ma'lumotlarni saqlash, ayniqsa xalqdan soliq olish jarayonida yuzaga kelgan. Dastlabki yozuv faqat rasmlarda ifodalanme'morlikning asosiy turi mastabalar ko'plab qurilgan. Ko'pincha atrofi toshlar bilan to'silgan mastabalar xom g'ishtdan to'g'ri burchak shaklida tiklangan bo'lib juda ko'p xonalardan tashkil topgan. Vafot etgan firavnning barcha buyumlari shu xonalardan birida saqalangan. Chunki uning tiriklik chog'idagi idish-tovoqlari va shunga o'xshash narsalar u dunyodagi hayot uchun zarur bo'ladi deb hisoblashgan. Piramida va sog'analar qurish uchun I-II-sulola firavnlari dafn qilingan mastabalar namuna bo'lib xizmat qiladi. Firavnlarning xudosi bu lochin qush ko'rinishidagi «Xorus» bo'lgan. Demak, Menes podsholik qilgan poytaxt Memfisning xudosi «Re», Menesning xudosi esa "Xorus" dir. Buni Xierakopolis (Memfis)dan topilgan Menesning mashhur tosh taxta politrasidan ko'rish mumkin. Unda shoh va uning atrofidagilar tantanavor qadam tashlab, dushman safini yorib o'tayotgani umumiy chiziqlarda ko'rsatilgan. Yana politrada aniq va noaniq belgilangan narsalar ham bor. Ularda shoh g'alaba qilgan shaharlar ko'rsatilgan bo'lishi ham mumkin.(2)

Misr tashqi dunyo bilan faol aloqa olib borgan. Misrning tosh ko'zalari bu vaqtda sharqiy O'rtayer dengizining barcha hududlaridan topilgan. Finikiya va Suriyadan yog'och, Sinay yarim orolidan mis, malaxit va feruza toshlari olib kelingan. Misrliklar Nubiya, Liviya va O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi nomlar bilan qizg'in savdo sotiq olib borganlar. Savdo quruqlik va suv yo'li orqali olib borilgan. Luviya va Arabiston sahrolari yo'llarini o'zlashtirganlar.

I-II sulolalar podsholari butun mamlakatni har 2 yilda bir marta aylanib chiqishlari an'anaga aylangan. Mafkurada uning birligi his qilina boshlangan. Endilikda podshoning unvoniga mamlakatning janubi va shimolida e'tiqod qilinadigan mabudlar Nexbet va Yajit » Ikkala hukmron» «Yuqori va Quyi Misr podshosi» so'zlari qo'shilgan. Butun mamlakat miqyosida Yuqori Misrning bosh xudosi Xorga e'tiqod qilish keng tarqalgan. Misrda yuqori tabaqa firavn, amaldor, askarboshi, ruhoni va nufuzli oqsoqollar hamda boylar hisoblangan. Aholining o'rtahol tabaqasini dehqonlar, hunarmandlar va mayda savdogarlar tashkil etgan. Misr firavnlari urushda asirga tushganlarni qulga aylantirgan edilar. Dastlabki vaqtlarda asirlar dushman sifatida o'ldirilib yuborilgan. Shuning uchun misrliklar ularni «murdalar» deb atashganlar. Keyinchalik esa asirga tushgan kishilarni o'ldirmasdan ishlatadigan bo'lganlar.(3)

Ularni dehqonchilikda, chorvachilikda, ibodatxonalarda va qurilishda ishlatganlar. Omon qolgan asirlarni «tirik murdalar» deyishgan. Bu «tirik murdalar» qullar tabaqasini tashkil etib, ular hech qanday mol-mulkka, huquqqa ega bo'lmaganlar. Shunday qilib Misr dunyodagi dastlabki quldorlik davlatlaridan biri bo'lgan. Eramizdan avvalgi XXIX-asr o'rtalarida Misrda siyosiy halokat yuz berdi. Podsho Sexemib Xorga sig'inishni bekor qilib, uning afsonaviy dushmani Seton bilan o'zini qiyosladi, poytaxtni Memfisdan Abidosga ko'chirdi. Quyi Misr ajralib chiqdi. Misrning birligini II- sulolaning so'ngi vakili Xa-sexemui qayta tikladi. U Quyi Misrni yana tor-mor qildi.(4)

Xulosam shundaki va shuni aytib o'tish joizki, firavnning kuchli hokimiyati orqali tashkil qilingan umum jamoa mehnati bilan misrliklar qulay hayot uchun shart-sharoit yaratishgan. Shu bois, tabiatning dahshatli kuchlari oldidagi qo'rqinch firavnning qudratli hokimiyati, xudolari, ularning ulug'vorligi va qudrati qadimgi misrliklarning dunyoqarashiga singib ketgan. Bu davrda san'atning diniy e'tiqodga qaramligi yaqqol seziladi.(5)

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Rajabov R. «Qadimgi dunyo tarixi» Toshkent-2009.

2. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
3. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
4. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
5. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
6. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
7. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG‘IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
8. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA “TADBIRKOR AYOL” UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
9. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
11. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
12. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
13. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
14. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
15. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
16. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
17. R. Rajabov. Qadimgi Sharq harbiy san’ati . Toshkent .2018.
18. Бобожонов, Бехруз Баходир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351.